

## ISLOMDA BAG‘RIKENGLIK TUSHUNCHASI

**Raximov Ma’rufjon**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islomshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Raximov Ma’rufjon

Tell: +998 93 774 0 50

Email: [marufjon19941005@gmail.com](mailto:marufjon19941005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bu maqolada Islom dinida bag‘rikenglik tushunchasining mohiyati Qur‘on oyatlari va hadislar orqali asoslanadi hamda nubuvvat davrida bag‘rikenglik tamoyillarining hayotdagi ijrosi turli tarixiy hodisalar misolida yoritib beriladi. Qolaversa, yurtimiz O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik tushunchalarining bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tolerant, Diniy bag‘rikenglik, Ahmad ibn Hanbal, Makka, As-siyra an-nabaviyya, Taraqqiyot strategiyasida

Islom dinining tinchlik va osoyishtalikka bo‘lgan e‘tibori yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda, bag‘rikenglik uning negizi hisoblanadi. Bag‘rikenglik tushunchasi dunyo mamlakatlari o‘rtasida “Tolerant”(lotincha “tolerare” – chidamoq; sabr qilmoq;) so‘zi bilan ishlatiladi. Bu so‘z biror narsani, o‘zgacha fikr yoki qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat‘iy nazar, imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi.

Diniy bag‘rikenglik turli din vakillari e‘tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat‘iy nazar ularning yonma-yon, o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir ta‘limotga hurmat bilan qarashni anglatadi. Har kim o‘z e‘tiqodiga amal qilishda erkin bo‘lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e‘tirof etmog‘imiz lozim. Diniy bag‘rikenglik insoniyat tarixidan mavjud bo‘lgan, butun yer yuzi aholisini tinchlik, osoyishtalik va hamjihatlikda birlashtira oladigan, barcha dinlar vakillari uning tamoyillariga amal qilishi bilan ijtimoiy munosabatlarda o‘zaro hurmat hamda bir-birini tushunish kabi zaruriy hayotiy ehtiyojlar hosil bo‘ladigan, turli millatlar, jamiyatlar o‘rtasida teng huquqlilik ta‘minlanadigan, ulkan manfaatlarni o‘zida mujassam etgan hayotiy tamoyillardandir. Uning mohiyati turli dinga e‘tiqod qiluvchi kishilarning bir zamin, bir vatanda oliyjanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashlarida namoyon bo‘ladi.

Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik dunyo hamjamiyati nigohidagi muhim masalalardan hisoblanadi. 1995-yil 16-noyabrda Xalqaro tashkilotlar orasida eng nufuzlisi va yirigi hisoblangan BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) tizimidagi tashkilot YUNESCO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilindi. Unda “Bag‘rikenglik bo‘lmasa tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi” deb ta‘kidlangan. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat‘iy nazar, bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan. Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi umumiy ma‘noda quyidagi uch holatni ifoda etadi:

- xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oliyjanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi;

tutadi;

- butun dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlashning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Islom dini o'zidan avvalgi dinlarning (yahudiylik, nasroniylik) madaniyat va an'analarga ehtirom bilan qarashga hamda ular bilan adolatli munosabatda bo'lishga buyurgan. Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday deydi :

وَلَا يَجْرِمَنَّكُمْ شَنَاٰنُ قَوْمٍ عَلَىٰ ۤأَلَّا تَعْلَمُوۡا

“Bir qavmni yomon ko'rishingiz, sizni ularga nisbatan adolat qilmaslikka olib bormasin!” (Moida, 8).<sup>1</sup>

Imom Ahmad ibn Hanbal rivoyat qilgan hadisda Muhammad (alayhissalom) shunday deydilar: “Kimki ahli zimmaga (nohaqdan zulm qilib) zahmat yetkazsa, Qiyomat kuni meni o'zining dushmani sifatida ko'radi”.

Islom dini avval boshdan bag'rikeng din bo'lib kelgan. Muhammad (alayhissalom) insonlarga “Allohning huzuridagi haq din Islom dini” ekanligini yetkazganlar, ularni Islom dinini qabul qilishga majburlamaganlar. Islomni qabul qilmaganlar bilan yonma-yon hayot kechirishda davom etganlar. Modomiki, musulmonlarga qarshi tig' ko'tarmas ekanlar, musulmonlar ham ular bilan tinch-totuv hayot kechirishlik tarafdori bo'lganlar. Zotan, Alloh taolo O'zining kalomida marhamat qilib aytadi:

لَا يَنْهَاكُمُ ٱللَّهُ عَنِ ٱلَّذِيۡنَ لَمْ يُقْتَلُوۡكُمْ فِى ٱلَّذِيۡنَ وَلَمْ يُخْرِجُوۡكُمْ مِّنۢ مَّيۡمٰنِكُمْ ۚ اَنۢ تَبَرُّوۡهُمْ وَتُقۡسَطُوۡا اِلَيْهِمۡ ۗ اِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلْمُقۡسَطِيۡنَ

“Alloh sizlarni diniy urush qilmagan va diyorlaringizdan chiqarmaganlarga yaxshilik va adolatli muomala qilishdan sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko'radi.”(Mumtahana, 8)<sup>2</sup>

Ilk islom davrida Muhammad (alayhissalom) Makkada “Allohning yagonaligi, uning hech qanday sherigi yo'qligi”, “Allohning huzurida oqni qoradan, qorani oqdan, arabni ajamdan, ajamni arabdan ortiq yeri yo'qligi, ular Allohning nazdida barobar ekanligi”ni odamlarga yetkazar ekanlar, Makka aholisi u zotga iymon keltirmadilar, u zotni yolg'ochiga chiqardilar, ozorlar yetkazdilar hamda jonlariga xavf soldilar. Hatto o'z tug'ilib o'sgan yerlaridan ko'chib chiqib ketishga majbur qildilar. Musulmonlar Makkada ana shunday qattiq bosim va tazyiqlar ostida yashasalar-da, Alloh taolo tomonidan Makka mushriklari bilan jang qilishga, ularni o'ldirishga buyurilmadilar, balki sabr qilishga buyurildilar. Keyinchalik, payg'ambarlikning 13-yili oxirida, musulmonlar jonlari uchun xavf bo'lmagan tinch yerga ko'chib o'tishga, Makkani tark etishga buyurildilar.

Musulmonlar Madina shahriga ko'chib o'tganlarida Madinada arablarning Avs va Hazraj qabilalari hamda yahudiylarning Banu Qaynuqo, Banu Nazir, Banu Qurayza qabilalari yashardi. Musulmonlar Madinada Islom davlati asoslarini barpo etishga kirishdilar. Avs va Hazraj qabilalari islomni qabul qildilar va “Islom davlatini barpo etishda o'z hissalarini qo'shdilar. Yahudiylar esa “islom” dinini tan olmadilar, o'z dinlarida qoldilar. Ana shu o'rinda musulmonlar yahudiy qabilalar bilan “Ittifoqchilik” bitimi tuzdilar. “Natijada yahudiylar o'z dinlarida qoldilar, ularning mol-mulklariga tegilmadi, balki haq-huquq, majburiyatlari belgilab berildi.”<sup>3</sup> Ibni Hishom o'zining “As-siyra an-nabaviyya”<sup>4</sup> asarida mazkur bitimning bandlarini keltirgan bo'lib, uning muhim bandlari

<sup>1</sup> “Tafsiri Hilol”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. T.:Hilol nashr

<sup>2</sup> “Tafsiri Hilol”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. T.:Hilol nashr

<sup>3</sup> Abdul Azim Ziyovuddin. “Siz payg'ambarni ko'rganmisiz ?” (152-bet);

<sup>4</sup> Ibn Hishom. “As-Siyratun nabaviyya”, (1/503-504);

1. Yahudiylarning ham musulmonlarning ham o'z dinlari bordir.
2. Yahudiylarning nafaqasi o'zlarining zimmasida, musulmonlarning nafaqasi ham o'zlarining zimmasidadir.
3. Ushbu bitim ahliga urush ochgan kimsalarga qarshi bir-birlariga yordam beradilar.
4. Albatta, ular o'zaro xolis-samimiy munosabatda bo'ladilar, gunoh bo'lmagan ishlarda bir-birlariga yordam beradilar.
5. Albatta mazlumga yordam beradilar.

Diniy bag'rikenglik masalasida payg'ambar Muhammad (alayhissalom) islom ummatigagina emas, balki butun insoniyatga namuna bo'ldilar. Rasululloh (alayhissalom) ahli kitobdan bo'lgan qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lar, hadya berib, ulardan ham turli hadyalar qabul qilardilar. Madinaga Habashiston nasroniylarining vakillari kelganda ularni masjidga tushirib ziyofat berdilar va xizmatlarini qildilar. Hattoki, Najron nasroniylariga masjidning bir tomonida ibodat qilishga ijozat berdilar.<sup>5</sup> Ular masjidning bir tomonida ibodat qilishsa, Rasululloh (alayhissalom) bilan munoqasha etmoqchi bo'lganlarida, ularni tinglab, mujodala qilganlar. Bularning barchasi muloyimlik, odob va go'zal axloq bilan bo'lgan.<sup>6</sup>

Hijratning 6-yili Zulqada oyida Muhammad (alayhissalom) boshchiliklarida 1400-1500 atrofida musulmonlar umra ziyorati niyati bilan Makkaga yo'l oladilar. Makkaga yaqin Hudaybiyya degan joyda to'xtab, Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu)ni elchi sifatida Makka boshliqlarining huzuriga yuboradilar. Bu orada Usmon ibn Affon o'ldirilganlari haqida xabar tarqaladi, shu chog'da Rasululloh (alayhissalom) musulmonlardan bay'at oladilar. Bir qancha vaqtdan keyin Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) Makka boshliqlarining elchilari bilan musulmonlar turgan Hudaybiyya degan joyga keladilar. Shu o'rinda musulmonlarga nisbatan noqulay shartlar qo'yilsa-da, Muhammad (alayhissalom) "Hudaybiyya sulhi" deb nom olgan, Makka mushriklari va musulmonlar o'rtasidagi 10 yillik tinchlik shartnomasiga rozi bo'ladilar. Holbuki, bu paytda musulmonlar ancha quvvatli edilar. Sahobalarning ko'plari bu sulhni yoqtirmadilar. Natijasi ularga yomon bo'lib ko'rindi. Ular o'zlarini mag'lub bo'lgandek, yengilgandek his qildilar. Ular orasida Umar ibn Hattob (roziyallohu anhu) ham bor edilar. Haqiqatdan ham, Hudaybiyya sulhi ulkan fath, balki ko'p qirrali fath bo'lgani keyinchalik ma'lum bo'ldi. Bu o'rinda, avvalo, Muhammad (alayhissalom) bunday tinchlik shartnomasiga rozi bo'lishlari "Islom dini"ning tinchlik va bag'rikenglik mohiyatini ifoda etardi. Hudaybiyyada ishtirok etgan musulmonlar soni 1400-1500 kishi atrofida edi. Salkam ikki yildan so'ng Makka fath qilinganida 10000 kishi qatnashdi.<sup>7</sup> Shu o'rinda "Tinchlik sulhi"ning keltirgan foydalaridan biriga e'tibor qarating, oradan o'tgan 2 yillik tinchlikda qo'shinning soni 10000 kishiga yetdi. O'shanda, mushriklar "Tinchlik shartnomasi"ga xilof qilganlaridan keyin, musulmonlar hijratning sakkizinchi yili Ramazon oyida Makkani fath qildilar. O'n besh yildan ortiq davr mobaynida musulmonlarga aziyatlar yetkazgan, o'z tug'ilib o'sgan yerlaridan chiqarib yuborgan Makka aholisi "endi bizni, nima qilarkin" deya o'ylab turganlarida, Muhammad (alayhissalom) Makka aholisining qilgan yomonliklarini kechirib yubordilar. Alloh taolo Rasululloh Muhammad alayhissalom haqlarida Anbiyo surasining 107-oyatida shunday deydi :

وَمَا أَرْسَلْنَاكَ إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ

"Biz seni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik".<sup>8</sup> Bu oyatda ham Alloh taolo Muhammad (alayhissalom)ni insonlarga zulm qilish uchun emas, majburlab islom diniga kirgazish uchun emas, balki eslatuvchi, ogohlantiruvchi va olamlarga faqatgina rahmat o'laroq yuborilganligini ta'kidlamogda. Yuqoridagi oyat va hadislardan shuni anglash mumkinki, islom tinchlik va bag'rikenglik

<sup>5</sup> "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" O'quv qo'llanma;

<sup>6</sup> Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad "Islom hazorasi" (62-bet) "Azon kitoblari" nashriyoti 2022-yil;

<sup>7</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Islom tarixi". 1-kitob-T.: "Hilol Nashr" 2022 - (273-274-bet).

<sup>8</sup> "Tafsiri Hilol", Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. T.:Hilol nashr

dini ekanligi hamda dinlararo bag'rikenglik tamoyillariga aniqroq misol sifatida eng asosiy shartlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli, bugun dunyoda mavjud bo'lgan davlatlarning deyarli barchasi diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalarini targ'ib qilish, uni davlat siyosati darajasiga olib chiqish va o'z hududida turli xil millat vakillarining hamjihatlikda yashashlarini ta'minlash masalalariga alohida urg'u bermoqdalar.

Yuqoridagi matnlarda bag'rikenglik haqida so'z borar ekan, bugungi kunda vatanimiz O'zbekistonda "bag'rikenglik" tushunchasi qay darajada ahamiyatli ekanligi hamda dinlar, millatlar, jamiyatlar o'rtasida "bag'rikenglik" tamoyillarining ijrosi haqida ham so'z yuritsak.

Bugungi kunda diniy bag'rikenglik masalasi nafaqat O'zbekistonda, balki rivojlangan va rivojlanib kelayotgan dunyo mamlakatlarida taraqqiyot va barqarorlik uchun eng muhim tamoyillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada O'zbekistonda ham ko'plab islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning orasida endilikda amalga bo'lgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 74-maqsadi sifatida "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash" masalalari qayd etilganligi alohida e'tiborga molik jihatlardan hisoblanadi.

Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarda bugungi Yangi O'zbekistonda vijdon va din erkinligi fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanishi, inson manfaatlari va erkinliklarining qadrlanishi yanada ustuvorlik kasb etgan.

Diniy sohada tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan vijdon erkinligi huquqi hamda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Din ishlari bo'yicha qo'mita har bir shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

"Mamlakatimizda bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ana shunday ko'p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, ahil va hamjihat bo'lib umr kechirishi natijasida ularning har biri ma'naviy va madaniy jihatdan boyib, o'zaro munosabatlar ta'sirida ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda. Mamlakatimizning taraqqiy etishi, avvalambor, undagi barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitining saqlanishiga bog'liq. Bu masalalarga davlatimiz rahbari turli yig'ilish va anjumanlarda, hattoki xalqaro maydonda ham xalqimiz va jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratib kelmoqda. Birodarlik, diniy bag'rikenglik, do'stlik va hamkorlik insoniylik fazilatlaridan biri sifatida ajdodlarimizdan bizlarga juda katta ma'naviy meros bo'lib qolgan. Barcha milliy madaniy markazlarning samarali faoliyat olib borishi uchun davlat tomonidan har tomonlama ko'mak berilmoqda, turli millat vakillarining o'z ona tili, madaniyati, san'ati, hunarmandchiligi va milliy qadriyatlarini rivojlantirishiga e'tibor qaratilmoqda.

Yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik, albatta, turli millat vakillarining o'zaro do'stlik, birodarlik munosabatlariga asoslangan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu borada "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir", deb ta'kidlagan edilar.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud

bo‘la olishi uchun xizmat qiladi.”<sup>9</sup> Yurtimizdagi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega bo‘lib, dunyoviy davlat va dinlar orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Buni jahon tan olmoqda va e‘tirof etmoqda. Yurtimizda bugungi kunda xavfsizlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik borasida amalga oshirilayotgan ishlarning negizi 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” hamda uning mantiqiy va uzviy davomi bo‘lgan “Taraqqiyot strategiyasida”da o‘z aksini topgan.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, yon-atrofimizda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini rivojlantirish, yurtimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, “Taraqqiyot strategiyasi”ning 74-maqsadi sifatida dinlararo bag‘rikenglik masalalarining alohida e‘tirof etilishi, bu islohotlarning faqatgina qog‘oz-hujjatlardagina emas, balki amaliyotda ham o‘z foydalarini ko‘rsatayotganidan va bu bilan millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlanganidan darak beradi. Xalqimizga xos bag‘rikenglik ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Mamlakatimizda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta‘minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta‘minlashda, fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirishda, yurt istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishda xalqimizning bag‘rikenglik xislati asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ming afsuski, hozirgi vaqtga kelib, ba‘zi davlatlarda milliy-etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi turli ko‘rinishdagi nizo va kelishmovchiliklarga olib kelayotganini barchamiz eshitib, ko‘rib turibmiz. Bunday tahdidlarni bartaraf etish oldimizdagi muhim vazifalardan biridir. Yurt osoyishta bo‘lishi, turli millatlar ahil yashashi uchun, eng avvalo, millatlararo munosabatlarda bag‘rikenglik, bir millatni boshqasidan ustun qo‘ymaslik tamoyillariga amal qilinishi lozim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o‘zaro hamjihatlik sharoitida yashab kelishmoqda. Ularning huquq va erkinligi, manfaatlarini ta‘minlash, ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi, an‘ana hamda qadriyatlarini saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e‘tibor natijasida ko‘p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi va qadr topdi.<sup>10</sup> Istiqbol yillarida Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, teng huquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga, uning qonuniy asoslarini yaratishga jiddiy e‘tibor qaratildi. Ushbu tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va barcha qonunlarimizda aniq va qat‘iy muhrlab qo‘yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 4-moddasida O‘zbekiston davlati o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odat va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlashi, ularning rivoji uchun sharoit yaratishi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Konstitutsiyamizning 19-moddasida esa mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo‘yildi.<sup>11</sup> Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash sohasiga qaratilgan edi. Qolaversa, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy

<sup>9</sup> Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik munosabatlari (iiv.uz)

<sup>10</sup> (PDF) O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati (researchgate.net)

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2017 (PDF) O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati (researchgate.net)

Majlisga yo‘llagan “Murojaatnoma”sida bu borada shunday deyiladi: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an‘analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e‘tibor qaratiladi”. Aytish joizki, davlatimiz rahbari tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan e‘tibor xalqaro me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosining amaliy ifodasi hisoblanadi. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMTning 72-sessiyasi minbarida turib, dunyo hamjamiyatini islom ma‘rifatini anglashga, diniy bag‘rikenglik ruhida yashashga chaqirib, “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan chiqishi va buni dunyo hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi o‘zbek xalqi, umuman, insoniyat uchun bag‘rikenglik namunasi hamda ma‘rifatga chorlov va ezgulik da‘vati bo‘ldi. Mazkur rezolyutsiyaga ellikdan ortiq davlatlar hammuallif bo‘lish istagini bildirdi. Zero, “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi barchaning ta‘lim olish huquqini ta‘minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish, eng muhimi, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta‘minlashga qaratilganligi bilan muhim xalqaro ahamiyatga ega.<sup>12</sup>

So‘zimizning so‘ngida O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning yurtimizda diniy bag‘rikenglik holatini tasvirlab, aytgan so‘zlarini keltirib o‘tmoqchiman : “Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo‘lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me‘yorlarga aylandi. Diniy bag‘rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o‘ziga xos qalqon vazifasini o‘tagan. U turli e‘tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo‘lishiga, ularning tashuvchilari o‘rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo‘l ochgan”, - Islom Karimov.<sup>13</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari: O‘quv qo‘llanma / - Toshkent, “Movarounnahr“ nashriyoti, 2016. - 224b.
2. “Tafsiri Hilol”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
3. Abdul Azim Ziyovuddin. “Siz payg‘ambarni ko‘rganmisiz ?”
4. Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik munosabatlari (iiv.uz)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
6. Qur‘oni Karim
7. “Islom tarixi” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Hilol Nashr” nashriyoti 2022.
8. “Islom hazorasi” Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad, “Azon kitoblari” nashriyoti 2022.
9. (PDF) O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati (researchgate.net).

<sup>12</sup> (PDF) O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati (researchgate.net).

<sup>13</sup> Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari: O‘quv qo‘llanma / - Toshkent, “Movarounnahr“ nashriyoti, 2016. 68-bet.